
PILLA-XONADONGA QO'SHIMCHA DAROMAD BAROBARIDA FAYZ-BARAKA HAM OLIB KELADI



Ipakchilik yurtimizda qadimdan taraqqiy etgan sohalardan hisoblanadi. Ipak qurti boqish – juda mashaqqatli mehnat talab qiladi. Uni yetishtirish uchun deyarli bir oy halovatdan kechiladi. Qolaversa, pilla-xonadonga qo'shimcha daromad barobarida fayz-baraka ham olib keladi.

Joriy mavsumda Qo'shtepa tumanida fermer xo'jaliklari xamda kasanachilar tomonidan 2 ming 423 quti ipak qurti parvarish qilinib, 145 tonnadan ziyod kumush tola yig'ib olish rejalashtirilgan.

Ipak qurti parvarishi uchun tumanda 2 ming 200 dan ortiq ipak qurti boquvchi oilalar hamda 392 dan ziyod fermer xo'jaliklari bilan ichki shartnomalar tuzilgan. Ayni kunlarda esa ipak qurti parvarishi qizg'in davom etmoqda.



Tuman hokimining o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Yuldasheva Loyson MFY hududida bo'lib, pillakorlarning bugungi sharoitlari hamda ipak qurti parvarishi bilan tanishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-29 08:10:29